

# YUQUMLI VA BOLALAR YUQUMLI KASALLIKLARI KAFEDRASI

## 2-KURS “Xalq tabobati” ta’lim yo‘nalishining “PARAZITOLOGIYA” MODULIDAN SILLABUS

<b>“PARAZITOLOGIYA” modulidan sillabus</b>			
Modulning to‘liq nomi: <b>Parazitologiya</b>	Kredit soni: 2 Shundan: JN – 2 Sinov – 0	Modul o‘tilish davri: 4-semestr	ECTS value: 2
Modul kodi: – <b>PZ1402</b>			
Ta’lim yo‘nalishlari:	60911100-Xalq tabobati	2-bosqich talabalari _____ guruhlar uchun	
Modulning davomiyligi	8 kun		
O‘quv soatlari hajmi:	Jami soat: 60 Shundan: ma’ruza – 6 amaliy mashg‘ulot – 24 mustaqil ta’lim-30		
O‘quv modulining statusi	Majburiy fanlar		
OTM nomi, manzili	Toshkent tibbiyot akademiyasi Toshkent shahar, Olmazor tumani, Farobiy-2		
Kafedra nomi	Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrası		
Mazkur kursning o‘qituvchilari haqida ma’lumot	Ma’ruzachi: _____ _____  Amaliy mashg‘ulot o‘tkazuvchi: _____ _____	E-mail: tmainfection@mail.ru _____ _____ _____ _____	
Mashg‘ulot vaqti va joyi	Soat 8:00 dan _____ gacha	Toshkent shahar, Uchtepa tumani, Zakovat-2, RIEMYuPKIATM klinikasi, 2-bino, 1-qavat	

<p>Modulning mazmuni</p>	<p>Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standarti va bakalavriat ta’lim yo‘nalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan, tibbiyot oliy o‘quv yurtlarining xalq tabobati fakulteti talabalariga Parazitologiya fanidan ta’lim berish uchun mo‘ljallangan. Dastur Parazitologiya fani bo‘yicha o‘qitiladigan talabalarning bilishlari kerak bo‘lgan nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar hajmini belgilaydi.</p> <p>Ushbu dastur talabalarga parazitlar kasalliklarining asosiy klinik simptomlari, ularning tashxisot prinsiplari, qiyosiy tashxisot aspektlari, shuningdek, profilaktika asoslari (umumiy va maxsus) bilimlarini egallab olishga imkoniyat yaratadi. Bu o‘z navbatida organizmning faoliyatini va uning atrof-muhit bilan muloqotini, chuqurroq tushunib yetishga asos yaratadi.</p> <p>Parazitologiya fanida parazitlar kasalliklarida qo‘llaniladigan tekshirishlarning ahamiyati, laboratoriyalar turlari, tekshirish usullari, olingan natijalarni interpretatsiya qilish, bir qator parazitlar kasalliklar diagnostikasi keng yoritilgan.</p> <p>Parazitologiya fani tibbiy bilimlar asosini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. U boshqa fanlar bilan birgalikda parazitlar kasalliklar to‘g‘risida yaxlit ma’lumot berish, shu bilan birga talabada klinik fikr yuritishning rivojlanishini ta’minlaydi.</p>
<p>Prerekvizitlar</p>	<p>Biologiya, odam anatomiyasi, mikrobiologiya, normal va patologik anatomiya, normal va patologik fiziologiya, epidemiologiya, farmakologiya</p>
<p>Postrekvizitlar</p>	<p>Terapiya, pediatriya, ftiziatriya, nevrologiya, xirurgiya</p>
<p>Modulning maqsadi</p>	<p>- amaliy sog‘liqni saqlash tizimida parazitlar kasalliklarga xizmat ko‘rsatish, parazitlar kasalliklar to‘g‘risida bilim berish, klinikasi, asosiy diagnostika usullari, davolash, oldini olish usullari bilan tanishtirish.</p>
<p>Modulning vazifalari</p>	<p>- Respublikamizda uchraydigan parazitlar kasalliklarining anamnezi va klinik laborator ma’lumotlariga asoslanib erta aniqlash, bemorlarni to‘g‘ri davolash;</p> <p>- sog‘liqni saqlashning birlamchi bosqichida laborator tekshiruv usullaridan ratsional foydalanilgan holda yuqumli kasalliklar diagnostikasiga, davolash usullariga integral yondashish.</p>

<p>Modul bo'yicha talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar</p>	<p><b>Talaba:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- aholi o'rtasida parazitlar kasalliklarining kelib chiqishi va tarqalishining umumiy qonuniyatlari;</li> <li>- bemorning shikoyati, epidemiologik anamnezi va kasallik anamnezini to'plash;</li> <li>- laborator va instrumental tekshiruvlar rejasini tuzish;</li> <li>- davo usullarini tanlash;</li> <li>- o'choqda birlamchi profilaktik chora-tadbirlarni tashkillashtirish (spesifik va nospesifik) usullari haqida <b>tasavvurga ega bo'lishi kerak;</b></li> <li>- parazitlar kasalliklarining etiologiyasi va epidemiologiyasi;</li> <li>- parazitlar kasalliklarining hozirgi davrda klinik kechish xususiyatlari;</li> <li>- parazitlar kasalliklarga erta tashxis qo'yish, davolashni <b>bilishi va ulardan foydalana olishi;</b></li> <li>- bezgak kasalligida gemoparazitni aniqlash maqsadida yo'g'on tomchi tayyorlash;</li> <li>- bezgak kasalligida gemoparazitni aniqlash maqsadida surtma tayyorlash;</li> <li>- enterobioz kasalligida gijja tuxumlarini aniqlash uchun perianal sohadan surtma tayyorlash;</li> <li>- bemorning shikoyati, epidemiologik anamnezi va kasallik anamnezini to'plash;</li> <li>- birlamchi tashxisni asoslash uchun zarur bo'lgan anamnestik va klinik belgilarni aniqlash va ularning yetakchilarini ajratish;</li> <li>- laborator va instrumental tekshiruvlar rejasini tuzish;</li> <li>- natijalarni tahlil qilish;</li> <li>- davo usullarini tanlash;</li> <li>- o'choqda birlamchi profilaktik chora-tadbirlarni tashkillashtirish (spesifik va nospesifik) usullari to'g'risida <b>kabi malakalarga (shu jumladan klinik amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.</b></li> </ul>
<p>Ta'lim berish usullari</p>	<p>Ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar</p>
<p>Ta'minot</p>	<p>Videofilmlar, multimediyali va o'qituvchi kompyuter dasturlardan, o'qitish metodikasidagi yangi</p>

	texnologiyalardan, mavzular bo'yicha nazariy bilimlarni so'rashdan foydalaniladi; mustaqil ishi, individual va guruhli prezentatsiyalar, uyga berilgan vazifalarni tayyorlash, referatlar yozish, testlar, vaziyatli masalalar va boshqalar.
--	--

**Tavsiya etilayotgan ma'ruza mashg'ulotlari:**

№	Ma'ruzalar mavzulari	Soatlar hajmi
1	<b>1-mavzu. Tibbiy parazitologiyaga kirish.</b> Tarixi. Parazitizm. Parazitlar tasnifi. "Parazit-xo'jayin" tizimining tavsifi. Transmissiv va notransmissiv tabiiy-o'choqli kasalliklar. Tibbiy protozoologiya. Tibbiy araxnoentomologiya. Uning tasnifi. Bo'g'imliyoqlilar turi ( <i>Arthropoda</i> ). Traxeyaliliar kichik turi ( <i>Tracheata</i> ). Ularning tibbiyotdagi ahamiyati. Profilaktikasi.	2
2	<b>2-mavzu. Ichak protozoylari:</b> dizenteriya amyobasi, balantidiaz, lyamblioz, teri va visseral leyshmanioz, bezgak hayot sikli, etiologiyasi, klinikasi, tashxislash, davolash, profilaktikasi.	2
3	<b>3-mavzu. Tibbiy gelmintologiya.</b> Yassi chuvalchanglar turi, Lentasimonlar sinfi ( <i>Cestoda</i> ). Yumaloq chuvalchanglar turi ( <i>Nemathelminthes</i> ).	2
<b>Jami</b>		<b>6</b>

**Amaliy mashg'ulotlar:**

№	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	Soatlar hajmi
1	<b>1-mavzu.</b> Tibbiy parazitologiyaga kirish. Parazitlarning hayot sikli va xo'jayin organizmlar. "Parazit-xo'jayin" tizimining tavsifi. Xo'jayin organizmiga parazitning ta'siri. Tibbiy araxnoentomologiya. Bo'g'imoyoqlilar turi ( <i>Arthropoda</i> ). Qisqichbaqasimonlar sinfi ( <i>Crustacea</i> ). Bo'g'imoyoqlilar turi ( <i>Arthropoda</i> ). O'rgimchaksimonlar sinfi ( <i>Arachnoidea</i> ), chayonlar otryadi ( <i>Scorpionidae</i> ), o'rgimchaklar otryadi ( <i>Aranei</i> ), kanalar otryadi ( <i>Acari</i> ). Tibbiy araxnoentomologiya. Tibbiy araxnoentomologiya. Traxeyaliliar kichik turi ( <i>Tracheata</i> ). Hasharotlar sinfi ( <i>Insecta</i> ); tarakanlar otryadi ( <i>Blattodea</i> ), batlar otryadi ( <i>Anoplura</i> ), burgalar otryadi ( <i>Aphaniptera</i> ), yarim qattiq qanotlilar otryadi yoki taxtakanalar ( <i>Hemiptera</i> ). Traxeyaliliar kichik turi ( <i>Tracheata</i> ). Hasharotlar sinfi ( <i>Insecta</i> ); ikki qanotlilar otryadi ( <i>Diptera</i> ).	4

2	<p><b>2-mavzu.</b> Tibbiy protozoologiya. Sarkomastigoforlar (<i>Sarcomastigophora</i>) turi. Sarkodalar sinfi (<i>Sarcodina</i>) – dizenteriya amyobasi (<i>Entamoeba histolytica</i>), og‘iz amyobasi (<i>Entamoeba gingivalis</i>). Mastigoforalar sinfi (<i>Mastigophora</i>) – ichak lyamblioz (<i>Lambliia intestinalis</i>). Sarkomastigoforlar (<i>Sarcomastigophora</i>) turi. Trixomonadalar avlodi (<i>Trichomonas</i>) – urogenital trixomonada (<i>Trichomonas vaginalis</i>), ichak trixomonadasi (<i>Trichomonas hominis</i>), og‘iz trixomonadasi (<i>Trichomonas tenax</i>). Infuzoriyalar (Ciliophora) turi. Balantidiaz. Kinetoplastidsimonlar (<i>Kinetoplastida</i>) otryadi – leishmaniya avlodi (<i>Leishmania</i>) (Teri va visseral leishmanioz). Apikomplekslar (<i>Apicomplexa</i>) yoki Sporozoalar (<i>Sporozoa</i>) turi. Koksidiyalar (<i>Coccidia</i>) otryadi – toksoplazma (<i>Toxoplasma gondii</i>). Odam organizmida parazitlik qiluvchi bezgak plazmodiyalari.</p>	4
3	<p><b>3-mavzu.</b> Tibbiy gelmintologiya. Yassi chuvalchanglar turi (<i>Plathelminthes, Platyhelminthes</i>). So‘rg‘ichlilar sinfi (<i>Trematoda</i>) – jigar qurti (<i>Fasciola hepatica</i>), Lansetsimon so‘rg‘ichli (<i>Dicrocoelium lanceatum</i>). O‘pka so‘rg‘ichlisi (<i>Paragonimus westermani</i>), qon so‘rg‘ichlilari yoki shistosomalar.</p>	4
4	<p><b>4-mavzu.</b> Tibbiy gelmintologiya. Lentasimonlar sinfi (<i>Cestoda</i>) – cho‘chqa yoki qurollangan solityori (<i>Taenia solium</i>), qoramol yoki qurollanmagan solityor (<i>Taeniarhynchus saginatus</i>), pakana gijja (<i>Hymenolepis nana</i>). Exinokokk (<i>Echinococcus granulosus</i>) Alveokokk (<i>Alveococcus multilacularis</i>).</p>	6
5	<p><b>5-mavzu.</b> Tibbiy gelmintologiya. Yumaloq chuvalchanglar turi (<i>Nemathelminthes</i>) Geogelmint-nematodalar – odam askaridasi (<i>Ascaris lumbricoides</i>), qilbosh gijja (<i>Trichocephalus trichiurus</i>), bolalar enterobiozi (<i>Enterobius vermicularis</i>), o‘n ikki barmoq ichak qiyshiq boshlisi (<i>Ancylostoma duodenale</i>). Biogelmint-nematodalar – Nekator (<i>Necator americanus</i>), ichak ugrisasi (<i>Strongyloides stercoralis</i>), trixinella (<i>Trichinella spiralis</i>), rishta (<i>Dracunculus medinensis</i>), filyariya (<i>Filariidae</i>), Vuxereriya (<i>Wuchereria bancrofti</i>).</p>	6
	<b>Jami</b>	<b>24</b>

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

№	MT mavzulari	Soatlar hajmi
1	Qoraqurt ( <i>Latrodectus tredecimguttatus</i> ) chaqqanida birinchi yordam.	6
2	Tripanosoma avlodi ( <i>Trypanosoma</i> ) hayot sikli, etiologiyasi, klinikasi, tashxislash, davolash, profilaktikasi.	6
3	Mushuk so'rg'ichlisi ( <i>Opisthorchis felinus</i> ) hayot sikli, etiologiyasi, klinikasi, tashxislash, davolash, profilaktikasi.	6
4	Keng lentasimon ( <i>Diphyllobotrium latum</i> ) hayot sikli, etiologiyasi, klinikasi, tashxislash, davolash, profilaktikasi.	6
5	Onxoserko ( <i>Onchocerca volvulus</i> ) va Dirofilyarioz ( <i>Dirofilaria repens</i> ) hayot sikli, etiologiyasi, klinikasi, tashxislash, davolash, profilaktikasi.	6
	<b>Jami</b>	<b>30</b>

Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasini mudiri, t.f.d.



L.N. Tuychiyev

Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani



A.A. Xamrayev

Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasini assistenti



Sh.J. Bobojonov